

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo muvofiqlashtiruvchi Kengashda ko'rib chiqilgan va 2024 yil 06 iyuldagi №1-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan
Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Patologik anatomiya va sud tibbiyoti
O'quv dastur nomi	« Murdalar sud-tibbiy ekspertizasi »
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Q.A.Maxsumxonov, K.A.Akbergenova.
Siklning umumiy soati	144 kredit
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar	



T.f.d, dotsent Q.A.Maxsumxonov



T.f.n, dotsent K.A.Akbergenova

Maqsad

Sud-tibbiy ekspertlarning murda sud-tibbiy ekspertizalarini o'tkazish ko'nikmalarini mustahkamlash, qo'shimcha laboratoriya tekshiruvlarni: sud-gistologik, sud-biologik, tibbiy-kriminalistik, sud-kimyo tekshiruvlarini o'tkazish va olingan natijalardan ekspert xulosasi to'xtamini tuzishda foydalanish, to'satdan o'lim va bolalar o'limi holatlarida xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllarini aniqlash, ularni sud-tibbiy tashxislash, kasallik, travma, zaharlanish holatlarining (jumladan, tugallangan suitsid holatlarini) kamaytirish va oldini olish bo'yicha profilaktik

	tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Davlat sud-tibbiy ekspertiza muassasalari sud-tibbiy ekspertlari uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	Murdalar sud-tibbiy ekspertizalari va tekshiruvlarni o'tkazish qoidalari, standartlari, amallarni bajarish yo'riqnomalari bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish; murdalarni sud-tibbiy tekshiruv usullari va texnikasini mukammallashtirish; mexanik jarohatlar, o'tkir zaharlanish va kislorod tanqisligi holatlarida o'tkaziladigan murda ekspertizalarining o'ziga xos xususiyatlarini anglatish; zo'raki va to'satdan o'lim holatlarini KXT – 10 ga mos ravishda tashxislash tamoyillarini singdirish; sud tibbiy tanatologiyaning maqsad va vazifalari, imkoniyatlarini klinik reanimatologiya va transplantologiyaga tadbiq etishni takomillashtirish; go'dak yoshidagi bolalar murdasi sud-tibbiy ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlarini anglatish; qo'shimcha laborator va instrumental tekshiruv natijalarini to'g'ri baxolashni tavsiflash; sud-tibbiy ekspertlarning xayotiy va ilmiy tassavvurini shakllantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik moxiyatini ko'rsatish asosida, sud-tibbiy ekspertlarning ongiga singdirish.
Sikl tarkibi	Modul. Sud-tibbiy tanatologiya asoslari. Modul. Zo'raki o'lim holatlarida sud-tibbiy ekspertiza xususiyatlari.

O‘qish bazalari (asosiy)	Qo‘shimcha bazalar (tasdiqlangan shartnoma asosida):
Respublika sud- tibbiy ekspertiza ilmiy- amaliy markazi	1. Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyati filiali



Asbob/uskunalar

